



## ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA O‘QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

*Olloqulova F.U.*

*Termiz davlat Pedagogika instituti*

*Boshlang‘ich ta‘limda matematika va ona tili kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** STEM, tadqiqotchilik, konsentrizm, ona tili mazmuni, PISA, variativlik, metodik yondashuv, PIRLS.

**Ключевые слова:** STEM, исследования, концентризм, содержание родного языка, PISA, вариативность, методологический подход, PIRLS.

**Key words:** STEM, research, concentricism, native language content, PISA, variability, methodical approach, PIRLS.

### **РЕЗЮМЕ:**

Ushbu maqolada bugungi ta‘lim mazmuni qanday ekanligi, yoshlarni tarbiyalashning pedagogik uslublari, zamonaviy keng dunyoqarash asoslariga ega, innovator, tadqiqotchi yoshlarni shakllantirishda umumiy o‘rta ta‘lim fan dasturlarining ahamiyati, xalqaro baholash dasturlarining tutgan o‘rni, ona tili darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga yo‘naltirish, ularda tedqiqotchilik elementlarini shakllantirishda konsentrizmga tayanish mazmuni atroficha tahlil qilingan.

### **РЕЗЮМЕ:**

В данной статье подробно анализируется содержание сегодняшнего образования, педагогические стили воспитания молодежи, значение общеобразовательных предметных программ среднего образования в формировании молодежи-новаторов, исследователей, роль международных оценочных программ, ориентация учащихся на исследовательскую деятельность на уроках родного языка, опора на концентризм в формировании в них элементов исследовательской деятельности.

### **SUMMARY:**

This article describes what the educational content of today is, pedagogical methods of youth education, has the foundations of a modern broad worldview, the importance of general secondary education science programs in the formation of innovator, research youth, the role of international assessment programs, the orientation of students in the research activities in native language lessons, the content of reliance on.

O‘zbekiston respublikasida sifatli va zamonaviy ta‘limni tashkil etish, yoshlarni global miqyosda raqobatbardosh etib tarbiyalash, “butun hayot



davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"[1] bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bu borada ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim massasasining infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish va qayta tayyorlash, moddiy texnik bazani yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik uslublar, metodologiyalar asosida yangi avlod darsliklarini yaratish, STEM sohasiga alohida ahamiyat qaratilib, raqamli texnologiyalarni o'rgatish, yoshlarni ijtimoiy, madaniy va professional rivojlanishiga qaratilgan loyihalarni qo'llab quvvatlash, ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish maqsadida xususiy sektorlar ta'lim xizmatlarini oshirish ta'limni yanada rivojlanishiga qaratilgandir. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqta nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash"[2] kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa ona tili darslarida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etishini belgilaydi.

Bunda bolada dastlabki asoslar maktabgacha yosh davridan boshlanib, mantiqiy davomi esa boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'yiladi. Bola shaxsida keng ilmiy dunyoqarash, xarakter xususiyat asoslarining shakllanishida o'rta maktab davri eng muhim va yetakchi davr hisoblanib, tadqiqotchilik faoliyatining rivojlanishi, tizimlashtirilishi uchun kichik maktab yosh davrida eng muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Bu davrda o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj ancha shakllanib, ularning ichki shaxsiy hayotida emosional motivasion jarayon tarkib topib boradi. O'quvchi xarakterida turli variativlik ya'ni qiziqishlar xilma-xilligi yuzaga keladi. Birda o'qishga bo'lgan intilish yuqori bo'lsa boshqasida rasm chizishga yoki nimadandir turli buyumlar yasashga intilish kuchli boladi. Har bir bola qandaydir iqtidor bilan dunyoga keladi, uni shakllantirish esa yaratilgan imkoniyat va faoliyat jarayonida rivojlanadi. Tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki boladagi beqaror qiziqish va imkoniyatlar turli tuman bo'lib, u juda ko'pdir, qachonki har qaysini anglab, rivojlanishiga imkoniyat yaratilsa albatta barchasi o'z samarasini beradi. Qiziqish va ehtiyojlar asosida egallangan bilim esa ongda mustahkam shakllanib, hayotiy faoliyat jarayonida rivojlanib boradi. Bu esa ona tili darslarida tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etishini belgilaydi.

Ushbu masalada eng avvalo konsentrizm asosida, yani barcha qiziqish va imkoniyatlarni markazlashtirish bir nuqtaga to'plash orqali ona tili darslarida tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish, muammoga ijodiy yondashuvchi, nostandart yechimlarni ko'rsata bera oladigan yoshlarni tarbiyalash lozim bo'ladi. Boshlang'ich sinf ona tili dasturi til ko'nikmalarini ya'ni tinglab tushinish, o'qish, yozish va muloqot qilishni, O'qish savodxonligi dasturi



ona tili bilan parallel ravishda nafaqat o'quvchilarni o'qish tezligini oshirish, balki o'qilgan matnni tushinish, uning mazmunini tahlil qilish, va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Konsentrizm ta'lim jarayonini izchil ravishda tashkil etish, insonning aqliy faoliyatini ishga tushirish va oldindan o'rganilgan bilimlar asosida yangi mavzularni o'zlashtirish va mustahkamlashni anglatadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslari metodik yondashuv asosida ya'ni fanlararo integratsiya asosida tashkil etish bolalarda kompleks ko'nikmalarni shakllantiradi (o'qilgan matn asosida grammatik mashqlar bajarish, ijodiy yozuvlar yozish), bosqichma-bosqich rivojlanish (o'quvchining yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos ravishda oddiy va sodda tushunchalardan murakkab va mavhum tushunchalarga o'tish), interfaol usullar (intervaal metodlar, muammoli savollar, guruhiy ishlar) olib borilishi zarur.

Bu yondashuv o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi, chunki u bilimlarni bosqichma-bosqich mustahkamlash va chuqurlashtirishga va hayotiy zarur vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi.

Ona tili darslarida o'quvchilarni tadqiqotchilik elementlarini shakllantirishda PIRLS, PISA topshiriqlari ahamiyatli bo'lib, PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish kabi asosiy maqsadni ko'zlaydi. Pirls topshiriqlari asosida tashkil etilgan ona tili darslarida o'quvchilarda diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish kabi xususiyatlar shakllanadi va tadqiqotchilik elementlarini shakllantirishga yaqindan yordam beradi.

PISA esa, o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini real muammolarni ya'ni, maktabda, uyda va jamoatchilik orasida qo'llay olish, hal qila olishlarini baholashga qaratiladi.

PISA testlaridan ona tili darslarida foydalanish, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo'llash o'quvchining hayotiy va intellektual ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Masalan 4-sinf Ona tili dasturida berilgan "Yonma-yon kelgan unli va undosh harflar" mavzusida quyidagi matn keltirilgan:

Kunlarning birida: "Ruben!-degan ovoz eshitildi. – Seni ko'rganimdan xursandman! U dengiz sohilida farzandlari bilan birga o'ynab yurgan Josh edi. Roben do'stini uchratganidan juda baxtiyor bo'ldi, oradan ko'p yillar o'tgan, uzoq yillar ko'rishmagan bo'lsalarda, u Josh bilan soatlar suhbatlashib o'tirdi. "Men yetarlicha dunyo kezdim, yetarlicha boyluk ortirdim, - dedi Ruben. \_Endi



faqat o‘zimga tug‘ilib o‘sgan go‘shamga qaytib, o‘sha yerda tinch-sokin hayot kechirishni istayman. Bir zamonlar menga qilgan saxiyliking evaziga men ham senga bir hadiya qilsam deyman. Ayt, nima istaysan? Yangi uy yoki hashamatli katta kemami?”[3]

1-topshiriq. Javobi yoziladigan test:

1. Josh qanday inson? Uni ikki fazilat bilan tasvirlang.
2. Ruben Josh bilan qanday mavzuda suhbat qurdi?
3. Ruben Joshga nega hadiya bermoqchi bo‘ldi?

2-topshiriq. Bir necha javobli test

1. Ruben juda badavlat odam edi. HA-YO‘Q
2. Ruben 50-60 yosh oralig‘idagi inson HA-YO‘Q

3-topshiriq. Javobi tanlanadigan test

1. “Bir zamonlar menga qilgan saxiyliking evaziga men ham senga bir hadiya qilsam deyman. Ayt, nima istaysan? Yangi uy yoki hashamatli katta kemami? Bunda Rubenning maqsadi nima?

- A. Qarzini qaytarmoqchi
- B. Jorshga uy olib bermoqchi
- C. Josh dengizchiligi uchun kema sovg‘a qilmoqchi?
- D. Joshni saxiylikini yodidan chiqarmagan va xolis hadiya qilmoqchi

2. Sizningcha Josh Rubenning taklifini qanday qabul qiladi va hikoyadan asos keltiring.

- A. Taklifni so‘zsiz qabul qildi.
- B. Taklifni rad etdi.
- C. Yana ham ko‘proq hadiya so‘radi.
- D. Taklifni qabul qilishga majbur bo‘ldi.

4-topshiriq: Lingvistik topshiriq:

Matnni o‘qing yonma-yon kelgan unli va undosh harflar ishtirok etgan so‘zlarni yozing, shu so‘zlarga sinonim so‘zlarni topib matnni qayta hikoya qiling.

Ona tili darslarida bunday keng qamrovli topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchilarda kuzatuvchanlik, tahlil qilish, fikr yuritish va qayta hikoya qilish qobiliyatlarini shakllantiradi bu esa tadqiqotchilik elementlarini shakllantirish uchun ko‘maklashadi.

Ona tili darslarida tadqiqotchilik elementlarini kiritish bir necha yo‘nalishda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchiidan, muayyan mavzu bo‘yicha savollar berish va shu orqali savolga javob izlashga yo‘naltirish o‘quvchilarda izlanish ko‘nikmalari rivojlantiradi, bu mustaqil ishlash va savollar asosida o‘qitish yo‘nalishini belgilaydi.

Ikkinchidan dasturda berilgan matnlarni chuqur tahlil qilish, soʻz va iboralarning maʼnosini oʻrganish, ularning kelib chiqishi, maʼnoviy oʻzgarishlarini izlash, qiyosiy tahlil qilish tildagi boylklarni tushunishga va ulardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Uchinchidan, oʻquvchilarga biror til hodisasini oʻrganish vazifasini berish, ularni oʻz topilmalari haqida taqdimot qilish, izlanish, maʼlumot yigʻish va uni tizimli tarzda taqdim etishni oʻrganish kichik ilmiy loyihalar ustida ishlashga daʼvat etadi.

Toʻrtinchidan, oʻqilgan matnlar mazmunini aytib berish, biror rasm yoki voqea hodisa haqida suhbat uyishtirish, nutqni mazmunli va mantiqiy toʻgʻri tuzish dastlabki kichik ilmiy maqolalar yozishga yordam beradi.

Beshinchidan, oʻquvchilar oʻrtasida diskussiya va munozaralar tashkil qilish, ularni oʻz nuqtai nazarini asoslash va dalillar bilan himoya qilishga oʻrgatish tadqiqotchilik usullarining muhim elementlaridan biridir. Bu jarayonda oʻquvchilar tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va oʻz fikrlarini bayon etish koʻnikmalarini rivojlantiradilar.

Yuqoridag berilgan usullardan foydalanish darslarni interaktiv va tadqiqotchilikka yoʻnaltirilgan qilib tashkil etish oʻquvchilar nafaqat mavzuni oʻrganadilar, balki mustaqil fikr yuritish va ilmiy izlanishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Bolada tadqiqotchilik, yangiliklar yaratishga qiziqishini rivojlantirish maqsadida ulardagi motivni qoʻllab quvvatlash, ragʻbatlantirish, yangi narsalarga intilish, atrof-muhitni oʻzlashtirishga koʻmaklashish lozim. Tadqiqotchilik faoliyatini roʻyobga chiqarish, qobiliyatga aylantirish esa tizimli ravishda avvalo oilada, soʻng taʼlim muassasasida uzluksiz taʼlim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, maktabgacha taʼlim-tarbiya va uning davomi sifatida boshlangʻich taʼlim-tarbiya jarayoni bola aqliy intellektual faoliyati rivojlanishida yetachi sanaladi. Bunda berilayotgan taʼlim mazmuni, uni tashkil etish va amalga oshirish shakli oʻquvchilarda yuzaga keladigan bir muncha murakkab aqliy faoliyatini tizimli, tartibli, izchil shakllantirishga asos hisoblanadi. Tadqiqotchilik faoliyati yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri hisoblanib, unga intellektual qobiliyat, obʼyektivlik, ishonchlik, kreativlik, innovasionlilik, ijodkorlik, tizimlilik, nostandart yondashuv, farazlarni ilgari surish, mushohadalilik, aniqlik xosdir. Tadqiqotchilik amaliyot va nazariyadan iborat jarayondir va bu konsentrizmga asoslangan yondashuv ilmiy farazlarni oldindan taxlil etish, tajriba oʻtkazish, olingan natijalarni taxlil etish, mavjud yechimlarni murakkablashgan savollar orqali farazga olib borish va umumlashtirish, ilgari surilgan farazlarni olingan



dalillar asosida tekshirish, yangi dalil va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritishdir. Mazkur vazifalarni amalga oshirish konsentrizm asosida tashkil etilishi, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, ta'lim sifat ko'rsatkichi bo'yicha yuqori darajani egallash maqsadida o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini integratsiyalashni talab etadi.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
2. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
3. D.D.Boynazarova. 4-sinf Ona tili darslik. 2023-yil. 21-bet.